

**TRANSPORT VOSITALARI MATERIALLARI MAVZUSINI
O'QITISHDA INNOVACION PEDAGOGIK USULLARI**

*D.K.Sipatdinova, S.Saparbaeva,
G.Embergenova, D.Qudaybergenov
№1 sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

Annotaciya: Avtomobilsozlik yo'nalishi talabalari kelgusida transport materiallari sohasida yuqori malakali mutaxassis bo'lishi lozim. Transport vositalarining xususiyatlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lish.

Kalit so'zlar: vosita, transport, o'qitish, innovaciya, pedagogika usul.

Mavzuni o'rgatishdagi asosiy vazifa keng ko'lamdagi mutaxassis tayyorlashda, amaliyotga, fan, texnikaning ilg'or g'oyalarini o'rgatib tadbiiq qilishda, ilmiy-texnik ma'lumotlardan foydalana biluvchi, avtomobil-transportning taraqqiyotini, ekspluataciya masalalarini va tabiatni asrashni, mehnatni iqtisod qilishni o'rganish kerak. Ushbu ko'rsatilgan vazifalarni bilish talabani muhandis bo'lib etilishida katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki avtomobil konstrukciyasi uchun eng zarur ashyo moy bo'lib, moylash materiallarining sifati yonilg'i tejamkorligiga, dvigatel va ayrim avtomobil qismlarining uzoq muddat ishlashiga bog'liq. Moylash materiallarining ekspluatacion xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar kelgusida yana izchil davom ettiriladi. Transport tizimlaridan foydalanish ishlarini tashkil etish sohasida zamonaviy bilimga ega mutaxassislarni etishtirishda moylash materiallari mavzusining ahamiyati juda katta, chunki er usti transport tizimlarining ichki yonuv dvigatellari normal ish rejimlarini ta'minlashda moylash materiallari bilan bog'liq masalalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruza darslarini an'anaviy tarzda, ilg'or pedagogik usullardan foydalanib olib borilishi talabalarda faollikni oshiradi. Darslarni muammoli tarzda olib borilishi, aniq misollar yordamida, hozirgi zamonaviy yangi ishlab chiqarilayotgan texnikalar bilan chambarchas bog'liq holda tushuntirilishi, talabani fanga qiziqtirish, uning faolligini oshirib, kengroq fikrlashga, maqsadga qarab intilishga, kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

Talabalar moylash materiallari mavzusini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informacion pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muxim ahamiyatga ega, mavzuni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda transport vositalarida qo'llaniladigan moylar namunalaridan foydalaniladi.

Tizimli yondashuv. Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: ya`ni jarayonning mantiqiyligini, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligini va yaxlitligini.

Dialogik yondashuv: Bu yondashuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish: Demokratik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash: Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

O`qitishni tashkil etish shakllari: Dialog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O`qitish vositalari: O`qitishning an`anaviy shakllari (darslik, ma`ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: O`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Ayrim mavzular bo`yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Internet tarmog`idagi mavzuga ta`luqli ma`lumot va ko`rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so`z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o`tkaziladi.

Mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga etkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo`yiladigan talab mavzuning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo`layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o`zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so`nggi yutuqlari e`tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Talabalar laboratoriya mashg`ulotida mavzuga oid bo`lgan uslubiy qo`llanmadan foydalangan holda dasturiy ta`minot asosida virtual laboratoriya ishini bajaradi. Moylash materiallari suyuq moylar va plastik moylarga bo`linadi. Moylash materiallarning xar ikkala turi xam mineral va organik bo`lishi mumkin. Mineral moylarning asosiy qismi neftni qayta ishlab olinadi. O`simlik va hayvonot maxsulotlaridan olinadigan moylar organik moylar deyiladi. Organik moylar sof holda kam ishlatiladi, ular yuqori sifatli plastik moylar tayyorlashda ishlatiladi.

Klaster markaziga moylash materiallarini qo`yib atrofiga har bir talabadan

navbatma-navbat bittadan misol yozishlari so'raladi barcha takliflar klasterga izohsiz kiritiladi. Auditoriyadan tushadigan takliflar tugagandan so'ng doskadagi natija klaster va uning tashkil etuvchilari o'qituvchi tomonidan izohlanib ulardan to'g'rilari qoldiriladi va umumlashtiriladi. Har bir qoldirilgan moylash materiali o'z sinifiga kiritiladi va klaster ixchamlantiriladi so'ngra guruxlarni talabalar o'zlari tahlil qilishadi va tushunmagan savollarni bir-biriga berib munozara o'tkaziladi barcha hal bo'lmagan munozaralarni o'qituvchi to'ldirib mustaxkamlaydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:-ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;-o'quvchilarga mavzuga tegishli bo'lgan tushunchalar yozilgan tarqatma materiallar tarqatiladi;-o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday mano anglatishi haqida yozma ma'lumot beradilar;-belgilangan vaqt tugagach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri, to'liq izoxini o'qib eshittiradi yoki slaydda namoyish qiladi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 20.04.2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

2.Alimova Z.X. Transport vositalarida ishlatiladigan ekspluatasion materiallar T.: Fan va texnologiyalar 2014y.

3.Alimova Z.X. Transport vositalarida ishlatiladigan materiallar T.: Fan 2016y. (to'ldirilgan qayta ishlangan nashr).

4.Аллаев Ж. Применение информационно-коммуникационных технологии для совершенствования химического образования// Academic Research in Educational Sciences, 2022, № 8(3), стр. 77–80.

5.Komilov K.O., Gapparova A. Kimyo mashg'ulotlarini tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish/ Respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami. Chirchiq, ChOTQMBY, (30-may, 2022 yil) . 156-159 betlar.